

Jalilova Mahbuba Mahrabovna**Namangan viloyati Namangan tumani****25-sonli maktabning, 1-toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi
(Namangan, Uzbekistan)****5-SINF ONA TILI FANIDA FONETIKA BO'LIMINI O'QITISHNING AHAMIYATI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-sinf ona tili darslarida fonetika bo'limini o'qitishning ahamiyati, o'quvchilarda o'quvchilarda imlo savodxonligini bir necha usullari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: fonetika, imlo, grafika, unli va undosh tovushlar, talaffuz me'yorlari

Fonetika bo'limi 5-sinfda o'rgatiladi. Bu bo'lim tilning tovushlar tizimini o'rgatadi. Fonetika bo'limini o'qitish quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilarni adabiy talaffuz me'yorlariga o'rgatish.
2. O'quvchilarning savodxonligini oshirish maqsadida ularni zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish.
3. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish.
4. O'quvchilarda turli lug'atlar va ma'lumotnomalar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish.

Fonetika bo'limining izchil kursi bir qator mavzularni o'z ichiga qamrab oladi. "Fonetika va grafika" mavzuini o'rganishda asosiy e'tibor fonetika bilan grafikani o'granish obyektini belgilab olishga, nutq haqida tushuncha berishga qaratiladi. Og'zaki va yozma nutq haqida tegishli ma'lumot berilib, darslikdagi mashqlar og'zaki va yozma shakllarda bajariladi.

Fonetika o'qitishda ko'zda tutilgan maqsadlardan biri o'quvchilarga orfografik bilimlar berishdir. Unli tovushlarni o'rgatishda ham, undosh tovushlarni o'rgatishda ham imloviy bilimlar berish imkoniyatlari katta. Darslikdagi 21-dars "Unlilar talaffuzi va imlosi" deb nomlangan. O'quvchilar **u** va **i**, **a** va **o**, **o'**, **e** unlilarining talaffuzi va imlosini o'rgansh orqali orfografik bilimlarga ega bo'ladilar. Masalan, **u** va **i** unlilarining talaffuzi va imlosi bilan bog'liq holda o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozishga oid quyidagicha bilimga ega bo'ladilar: 1. So'zlarning birinchi bo'g'inida **r, l** undoshlaridan oldin kelgan **i** unlisi bilinar – bilinmas talaffuz qilinsa ham, yozuvda **i** harfi bilan yoziladi. Masalan: biroq, sira, bilan. 2. Ikki bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inida lablangan **u** unlisi ta'sirida ikkinchi bo'g'indagi **i** unlisi **u** holda talaffuz qilinsa ham, yozuvda **i** yoziladi. Shunday yozilishi bilan ikkinchi bo'g'inda **u** yoziladigan otlardan farqlanadi: urush-urish, yurush-yurish, qurut-qurit. Bu juftliklarning birinchi qismida berilgani ot turkumiga mansub so'zlar bo'lsa, ikkinchi qismida berilgan so'zlar esa fe'l turkumiga mansubdir.

Darslikda mavzuni mustahkamlash uchun 3 ta mashq berilgan. 381 – mashq berilgan so'zlarning talaffuzi bilan yozilishi o'rtasidagi farqni ajratishga qaratilgan bo'lsa. 382 – mashqda esa berilgan so'zlardagi nuqtalar o'rniga **i** yoki **u** harfini qo'yish vazifasi topshirilgan. 383 – mashq esa o'quvchining mavzu yuzasidan egallagan bilimini va savodxonligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda bir so'zning ikki xil yozilishi berilgan: tuyg'i-tuyg'u, uyqu-uyqi kabi. Bulardan to'g'ri yozilganini aniqlash topshirilgan. 384 – mashq uya vazifa qilib beriladi. Ko'rinadiki, mana shu mavzu orqali o'quvchilarga **i** va **u** unlisi ishtirok etgan so'zlarning imlosi

haqida yetarli tushuncha beriladi. Darslikdan “Qator kelgan unililar talaffuzi va imlosi” nomli mavzu ham o‘rin olgan. Ushbu mavzu ham o‘quvchilar savodxonligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. So‘z tarkibida yonma-yon kelgan ikki unli tovush ishtirok etsa bular qator kelgan unli sanaladi: oila, shoir, muomala, soat, saodat kabi. Bunday so‘zlar talaffuzida yo bir tovush tushirib aytiladi yoki bir undosh tovush qo‘yib aytiladi. Bu holat esa qator unli ishtirok etgan so‘zlarning imlosida qiyinchilik tug‘diradi. Ushbu mavzu esa o‘quvchilarga shunday so‘zlarning yozilishini o‘rgatishda yaxshi yordam beradi.

Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosini o‘rgatish orqali ham o‘quvchilarga orfografik bilimlar berib boriladi. Darslikda berilgan “Jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosi” nomli mavzu quyidagicha o‘rgatiladi. Dastlab topshiriq sifatida berilgan **bob, yod, eg** kabi so‘zlarning talaffuzi o‘rganiladi va so‘z oxirida kelgan jarangli undoshlarning jarangsizlashi, lekin yozuvda jarangli undosh sifatida aytilishi haqida shunday xulosa chiqariladi: so‘z oxirida **b-p, d-t, z-s** singari jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi farq yo‘qolib, bir xil jarangsiz undosh tovush holida talaffuz etiladi, lekin **b,d,z** yoziladi. Shundan so‘ng darslikdagi mashqlar orqali bu qoidalar mustahkamlanadi. Keyingi darslarda **g-k, q-g** kabi jarangli va jarangsiz undoshlarning imlosi, **q-g** undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shimchalarning qo‘shilishi va ularning imlosi, v,m undoshlaridan oldin kelgan n undoshining imlosi o‘rganiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarga **j, x** va **h, f, ng, sh** va **ch** harflarining, qo‘sh undoshlarning talaffuzi va imlosi haqida ham ma‘lumot beriladi. Imloviy bilimlar tutuq belgisi, qator undoshlar, bo‘g‘in, tovushlarining otilirishi va tushib qolishi kabi mavzular bilan bog‘liq holda ham o‘rgatiladi.

Umuman olganda, “Fonetika” bo‘limini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga ko‘plab imloviy bilimlar berish, ularning savodxonligini yaxshilash imkoniyatlari keng. Buni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq.

“Fonetika” bo‘limini o‘qitishda ko‘zda tutiladigan amaliy maqsadlardan biri o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishdir. Bu ish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1. Tovushdosh so‘zlar ustida ishlash orqali. Tovushdosh so‘zlar bir-biridan bir tovush bilan farqlanadi hamda turli ma‘noga ega bo‘ladi: ber-bor-bur, loy-moy-soy, choy-toy kabi. O‘quvchilar har bir unli va undosh tovushning talaffuzi va imlo xususiyatlarini o‘rganib bo‘lgach, shu tovushlarga mos tovushdosh so‘zlar to‘playdilar: Bu esa o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

2. So‘zlarning ma‘no nozikligi ustida ishlash orqali.

Unli va undosh tovushlarni cho‘zish vositasida ma‘noni kuchaytirish, so‘zga ishonchsizlik, yalinish-erkalash kabi ma‘nolarni yuklash mumkin. Masalan: katta` (ma‘noni kuchaytirish), yo‘qq` (ishonchsizlik ma‘nosi), buvijon` (yalinish) kabi. Ana shunday ifodalarni o‘quvchilarga o‘rgatish ularning so‘z boyligini oshiradi.

3. Ma‘nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar ustida ishlash orqali.

O‘qituvchi “Fonetika” bo‘limidagi har bir mashq ustida ishlashda ma‘nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar ustida ishlash imkoniyatiga ega.

Masalan, **ng** tovushining imlosi ustida ish olib borilar ekan, o‘quvchilar ohangi, tengi, tonggi, manglay singari so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratadilar. Shu bilan birga ma‘nodoshlar topishi ham mumkin. Masalan: ohang-sas, teng-barobar-tengqur, tonggi-sahargi, manglay – peshona kabi.

Tovush juftlari bilan farqlanuvchi soʻzlar ustida ish olib borilayotganda ham shunday ishlar davom ettirilishi mumkin: urish-urush, yumish-yumush.

“Fonetika” boʻlimini oʻqitishda sathlararo bogʻlanishni yoʻlga qoʻyish imkoniyatlari ham keng. Bu boʻlimni orfografiya, leksikologiya, sintaksis kabi boʻlimlar bilan bogʻliq holda oʻqitish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET RESURLARI:

1. 5- sinf ona tili darsligi-2015-yil
2. Til va adabiyot taʼlimi jurnali – 2012 –yil – 7-son – 40-42- sahifalar
3. B.Toʻxliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova-Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi – Toshkent-2010-y-51-53-sahifalar
4. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik, Toshkent “Sharq” 2002- yil.
5. <http://ziyonet.uz/>
6. <http://uzedu.uz/>
7. @mutaxassislarga kanali materiallari